

BUGUNGI KUNDA O‘QUVCHILARNI AN‘ANALARGA TAYANIB, VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH.

Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta‘lim fakulteti

katta o‘qituvchisi zahiradagi Mayor

ALIJONOV BAXTIYOR XOSHIMOVICH

Farg‘ona davlat universiteti

harbiy ta‘lim fakulteti 2-bosqich talabalari

O‘rmonov Xurshidbek To‘lqinjon O‘g‘li

Mamajonov Firuzbek Baxrom O‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida an‘analarning ro‘li hamda milliy an‘analar to‘g‘risida yoritilgan. Katta avlodlar tajribasi va an‘analari - bu biz uchun bebaho merosdir. Prezidentimiz, xukumatimiz bu meroslarni ko‘z qorachig‘imizdek saqlashni, ularni ijodiy jixatdan yanada boyitishga chaqirmoqda. O‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga, ularning shakllanishiga qanday ta‘siri bor, degan mazmundagi savollar tug‘iladi. An‘analar deyilganda, tarixan vujudga kelgan odatlar, dunyoqarashlar va insonlarning yurish-turish qoidalarini tushunish qabul qilingan. An‘analar asosini qayta-qayta takrorlanuvchi omillar tashkil qiladi.

Kalit so‘zlar: Jangovar va mehnat an‘analari, an‘analarning shakllanishi, ijtimoiy-siyosiy tuzum, , milliy g‘oya va milliy mafkura, vatanga, ona-zaminga sadoqat, vatanga qasamyodga sodiqlik, sodiqlik, vatan himoyasiga doimiy shaylik, harbiy burch.

An‘ana , bu avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan e‘tiborga loyiq, mavjud ijtimoiy, iqtisodiy munosabat, jamiyatning ijtimoiy - siyosiy tizimi bilan bog‘lik. Insonlar ongida ma‘lum bir davr ichida singib ketgan va ularning hayotda doim uchrab turadigan ishlab chiqarish usul va uslublari hamda ustun turuvchi siyosiy onglari kundan kunga rivojlanib bormoqda. Qisqa qilib aytganda an‘ana - bu bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tgan avvalgi

avloddan meros bo'lib qolgan milliy va umuminsoniy kadriyatlarimizdan biridir. O'zbek xalqining an'alariga O'zbekistonga, uning yeriga, tabiati, insonlariga bo'lgan muhabbat, Vatanimiz an'analari, madaniyati, tarixini bilishga intilish. Respublikamiz erishgan yutuqlari va qudratidan faxrlanish va boshqalar kiradi. Yoshlarga tarbiya berishda avlod - ajdodlarimiz to'plagan tajribalariga asoslangan holda ish olib boriladi. An'alar xalqning aniq tarixiy asosi bilan belgilanadi, ularni o'z - o'zidan bir xalqdan olib ikkinchi xalqqa singdirib bo'lmaydi. Har bir xalqning, bir millatning o'z an'analari mavjuddir. Ularning ba'zilarida umumiylik ham bo'lishi mumkin. Masalan: Jangovar an'alar ko'p davlatlar armiyalarida harbiy bilimni egallash, o'z kasbini sevish kabi mehnat an'alaridan iboratdir. Shunday an'analari ham borki, ular faqatgina shu xalqqa, millat yoki mintaqaga mansubdir.

Misoldagi o'zbek an'ana va odatlarida xalq qalbi va tabiati o'zining so'nmas aksini topadi: mehnatsevarlik, mehmondo'stlik, mexribonlik, kattalarga hurmat, bolajonlik, tabiatni sevish va do'stlik.

Bizning mustaqil O'zbekistonimiz sayyoramizning eng tinchliksevar davlatlaridan biridir. Bizning asosiy maqsadimiz -iqtisodiy jihatdan kuchli, siyosiy jihatdan mustaqil, huquqiy demokratik davlat qurishdir. Mamlakatning ichki hayotida qonunlarni ustuvorligiga, xalq turmush-tarzi farovonligini yanada oshirishga harakat qilib, O'zbekiston Respublikasi tashqi sohada ham boshqa davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik, o'zaro hamkorlikka intilib, o'z kelajagi tomon dadil odimlamoqda. Shunday bo'lsada, bizning tevarak-atrofimizda davlatimiz mustaqilligini, xalqimizning tinch, osuda hayotini, uning fidokorona yaratuvchanlik mehnatini ko'ra olmayotgan qora niyatli yovuz kuchlar ham yo'q emas.

Shuning uchun ham, mamlakatimiz harbiy kuch-qudratini oshirish, yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash va ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu dolzarb vazifalar maktablar, o'rta maxsus bilim yurtlarida amalga oshirilib, ommaviy tarzda o'z aksini topishi kerak. Asrlar davomida ular to'planib va rivojlanib borib, avloddan-avlodga o'tib kelgan va ma'lum bir jamoat guruhlari, sinflar, xalqlarning maqsadlarida, yurish-turish namunalari, axloqiy qoidalar

sifatida shakllangan. Tabiiyki, tarixiy rivojlanishning har bir davrida turli an'analar vujudga kelgan, va ular o'z zamonasining talablari va sharoitlariga to'la-to'kis mos kelgan.

Ba'zi bir manbalarda an'analarga boshqacharoq ta'rif berilgan, lekin bu bilan uning umumiy mazmuni va mohiyati o'zgarmagan. Masalan, an'ana avloddan avlodga o'tib kelgan ma'lum bir vaziyatlarda saqlanib qoluvchi ijtimoiy va madaniy meros elementlaridir. Bu yerda an'analar bo'lib yurish-turish qoidalari, qadriyatlar, e'tiqodlar, odatlar va boshqalar keladi. U yoki bu an'analar har qanday jamiyatda ham bo'lib, ular ijtimoiy hayotning barcha ko'rinishlarida uchrab turadi. An'analar, ayniqsa, dinda keng tarqalgan. Diniy an'analar odatda, madaniy va ma'rifiy mazmunda bo'lib, ular odamlarning insoniy va diniy qadriyatlarini, xalq urf-odatlarini, udumlarini hurmatlashga va e'zozlashga yoshi ulug'larga va ajdodlarimiz xotirasiga hurmat yuzasidan yondashishga o'rgatadi. Lekin, yana ekstremistik diniy an'analar ham mavjudki, ularning mazmun va mohiyati biz uchun, bizning jamiyat uchun umuman yotdir. Jangari kayfiyatda bo'lgan bunday diniy oqimlar uchun insoniy qadriyatlarni o'zi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.

Yuqorida aytib o'tilgan an'analardan tashqari, xalqimizning jangovar va mehnat an'analari ham borki, ular jamoatchilik va madaniy munosabatlarni rivojlantirishga, yosh avlodni bu shonli an'analarga sadoqat ruhida tarbiyalashga imkon yaratadi.

An'analar o'zgaruvchan bo'lib, ular hech qachon abadiy bo'lmaydi. Ular ma'lum bir tarixiy sharoitlarda vujudga kelib, rivojlanib boradilar. Bu sharoitlarni o'zgarishi yoki yo'qolishi o'z navbatida an'analarni ham o'zgarishiga yoki yo'qolib ketishiga olib keladi. Bunday vaziyatda ular o'rniga boshqa, ba'zan mazmun jihatdan umuman qarama-qarshi bo'lgan an'analar kelishi mumkin.

An'analarning shakllanishi turli xalqlarda har xil kechishi mumkin. Bu har bir xalq boshqalarga farqli o'laroq, faqat o'ziga xos bo'lgan tarixiy rivojlanish yo'liga, o'z urf-odatlari va turmush tarziga ega ekanligi bilan tushuntiriladi. Biroq, an'analarning xususiyati va ularning yo'nalishi har doim ijtimoiy-siyosiy tuzumga bog'liq bo'ladi. Yoshlarni xalqimizning jangovar va mehnat an'anasiga tayangan holda tarbiyalash - o'quv yurtimiz olib boradigan ishlarning bir yo'nalishidir.

Mustaqillik sharofati bilan xalqimizning barcha qadriyatlari qayta tiklandi. SHu sababli ham yoshlarimiz o'zlari istiqomat qilayotgan yurtning an'ana hamda odatlarini bilishlari shart. Misol uchun, o'zbeklarning mehmondo'stligi asosida insonni chuqur hurmat qilish yotibdi. Uyga mehmon kelsa, mezbon uydagi bor narsani ayamaydi, mehmonlik hurmatini bajo keltirishlikni o'zining burchi deb biladi. Ana shu fikrlarga dalil sifatida quyidagi bir necha o'zbek xalq makollarini keltirishimiz mumkin. Masalan: «Mehmon otangdek ulug'», «Uyingda mehmon bo'lsa, sen mushukni ham haydama, mehmon buni o'z sha'niga aytilayapti deb tushuntirish mumkin», «Uyingda noning bo'lmasa, uni shirin so'z almashtirsin», «Mehmonni ketmasin desang, oshni olib kelmay tur». CHunki O'zbekistonda oshdan oldin turish behurmatligi hammaga ma'lum.

Harbiy va mehnat an'analari asosida tarbiyalashning shakli va usullari. Yoshlarda O'zbekiston Qurolli Kuchlarga bo'lgan mehr — muhabbatni uyg'otishda quyidagilar muhim o'rin egallaydi. Yoshlarni harbiy va mehnat an'analari asosida to'g'ri tarbiyalashning shakli va usullari turlicha bo'lishi mumkin. Shakl va usulning turlicha bo'lishi bilan birga umumiylik ham bor. Ular ichida eng ko'p ya'ni keng tarqalganlari quyidagilardan iboratdir:

- 1). Armiyaga bag'ishlangan shonli sanalarga ta'luqli turli kechalarni o'tkazish;
- 2). Harbiy va mehnat shon - shuxratiga sazovor bo'lgan joylarga sayohatlar uyushtirish;
- 3). Harbiy qism, memoriallar hamda birodarlik qabrlarini ziyorat qilish;
- 4). Kinofilmlar namoyish etish va ularni taxlil qilish;
- 5). Jamoatchilik tarzida badiiy kitoblarni taxlil qilish;
- 6). Harbiy sport o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish;
- 7). Urush va mehnat faxriylari, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan turli uchrashuvlar o'tkazish;
- 8). Muzey, teatr va kinoga madaniy sayohat qilish;

9). O‘zbekiston Qurolli kuchlarining tarixini o‘rganish;

10). Urush va mehnat faxriylarini otaliqqa olish hamda nogiron insonlarga yordam ko‘rsatish.

Kechalar odatda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga yoki Qurolli Kuchlarni Vatanni himoya qilish kuniga bag‘ishlangan holda oylik, xaftaliklar harbiy ommaviy tarzda o‘tkaziladi. Shuningdek, yoshlarni armiya xizmatiga jo‘natishda, harbiy o‘quv yurtini tugatishda, harbiy sport o‘yinlarining chempionlari sharafiga bag‘ishlangan kechalar o‘tkaziladi.

O‘quvchilarni tarbiyalash shaklining eng samaralisi, jangovar an‘analar haqidagi, harbiy vatanparvarlik mavzusidaga filmlarni ko‘rish yaxshi natija beradi. Hozirpi davrda o‘quvchilar orasida «Shunqorlar» harbiy vatanparvarlik o‘yini - Mudofaa vazirligi, «Yoshlar ittifoqi», «Nuroni» jamg‘armalari bilan birgalikda o‘tkazilmoqda. «Amir Temur avlodlari» harbiy sport o‘yinlari turli harbiy litseylar o‘rtasida keng tarqalgan. Tarixni chuqur o‘rganish maqsadida muzey va har xil yodgorliklarni ziyorat qilish ham katta ahamiyatga ega. Har bir yosh avlod faxr bilan Amir Temur xaykalini tomosha qilar ekan uning «Kuch adolatdadir» degan shiorini yod oladilar. SHunday an‘analarimizning o‘tkazilishi yoshlarimizni bizning milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarimizga bo‘lgan qiziqishini tobora ortirib boradi.

Kelajakgi buyuk davlatni qurishda ulug‘ allomalarimiz A.R. Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Axmad Al Farg‘oniy, Amir Temur, Naqshband, Alisher Navoiy, Z. M. Bobur va boshqalarning qoldirilgan boy meroslari yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o‘zining samarali ta‘sirini ko‘rsatadi. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning shakl va usullari rang - barangdir. Barcha o‘tkazilgan tadbirlar ham ijodiy ishdir. Armiya va flotlarda jangchilarni janga chorlovchi, harbiy xizmatni o‘tashda paydo bo‘luvchi va avloddan avlodga o‘zatiluvchi jangovar an‘analar asosida Vatanga bo‘lgan muhabbat, uni himoya qilishga doimiy tayyorgarlik. Harbiy Qasamyodga, jangovar bayroqqa, jangovar do‘stlikka sodiqlik, komandirni hurmat qilish, uni jangda himoya qilish, jangda ziyraklik va dushmanlarga beshafqat bo‘lish g‘oyalari yotadi.

Vatanga sadoqat – tarixiy an’ana bo‘lib, har bir ijtimoiy etnik formalarda jamiyat ongida yashagan. Tarixiy nomlar bo‘lishida Tumaris (Kir II), SHiroq, Spitamen, Muqanna, Amir Temurlarni keltirish mumkin.

Xulosa

Ushbu maqoladan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, An’analar xalqning aniq tarixiy asosi bilan belgilanadi, ularni o‘z - o‘zidan bir xalqdan olib ikkinchi xalqqa singdirib bo‘lmaydi. Har bir xalqning, bir millatning o‘z an’analari mavjuddir. Ularning ba’zilarida umumiylik ham bo‘lishi mumkin. Masalan: Jangovar an’analar ko‘p davlatlar armiyalarida harbiy bilimni egallash, o‘z kasbini sevish kabi mehnat an’analaridan iboratdir. Shunday an’analar ham borki, ular faqatgina shu xalqqa, millat yoki mintaqaga mansubdir. Misoldagi o‘zbek an’ana va odatlarida xalq qalbi va tabiati o‘zining so‘nmas aksini topadi: mehnatsevarlik, mehmondo‘stlik, mexribonlik, kattalarga hurmat, bolajonlik, tabiatni sevish va do‘stlik. Jangovar va mehnat an’analarining tarbiyaviy ta’siri, ularning ishonchli misollari bilan tasdiqlanadi. Ular yoshlarni avvalgi avlod yo‘lidan borishga undaydi. Ularning qilgan shonli ishlarini davom ettirishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”. O‘zbekiston nashriyoti, 2002.
2. «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonun, 2002.
3. «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonun 2001 yil 11 may.
4. 2023 – 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish KONSEPSIYASI Toshkent sh., 2023-yil 29-iyun, 267-son
5. Sh. Tilavoldiyev Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari fanidan Darslik. Poligraf Super Servis, 2023.
6. «Harbiy Vatanparvarlik Tarbiyasi Nazariyasi» R.Mamajonov.